



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3824-1
2026 - yil 14 - Avgust

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRINING
BUYRUG'I

**Ko'p kvartirali uylarni saqlash va ulardan foydalanish
qoidalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-apreldagi 214-son "O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi [qaroriga](#) muvofiq buyuraman:

1. O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining 2026-yil 17-apreldagi 01/2-17-son buyrug'i (ro'yxat raqami 3824, 2026-yil 29-aprel) (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2026-y., 10/26/3824/0432-son) bilan tasdiqlangan Ko'p kvartirali uylarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi bilan kelishilgan.

3. Ushbu buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran uch oy o'tgach kuchga kiradi.

Вазир
2026-yil 10-iyul
01/2-28-son



XIDOYATOV SHERZOD
SAIDJANOVICH

Kelishildi:

Vazir
2026-yil 26-iyun



IKRAMOV AZIZBEK
ISRAILOVICH

Qo'mita raisi
2026-yil 8-iyun



RAFIQOV ABDUVAQQOS
VOHIDOVICH

Vazir
2026-yil 3-iyun



ZAXIDOV BOTIR
ERKINOVICH

O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal
xo'jaligi vazirining 2026-yil 10-iyuldagi 01/2-28 son
buyrug'iga
ILOVA

**Ko'p kvartirali uylarni saqlash va ulardan foydalanish
qoidalariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. 7 va 8-bandlarning birinchi xatboshilaridan va 10-bandning yigirma birinchi xatboshisidan “(ijarachilar, ijaraga oluvchilar)” degan so'zlar chiqarib tashlansin.

2. Quyidagi mazmundagi 8¹-band bilan to'ldirilsin:

“8¹. Mulkdorlar o'zlari ijaraga bergan ko'p kvartirali uylardagi joylardan foydalanayotgan ijaraga oluvchilar (ijarachilar) tomonidan mazkur Qoidalar talablariga rioya etilishini ta'minlashlari lozim.”.

3. 26-bandning beshinchi xatboshisidagi “darhol” degan so'z “bir oy ichida” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

4. 38-bandning ikkinchi xatboshisidan “, bir oyda kamida bir marotaba devorlari bilan qo'shib yuvilishi kerak” degan so'zlar chiqarib tashlansin.

5. 50-banddan “hamda infratuzilma obyektlarini” degan so'zlar chiqarib tashlansin.

6. 54-bandda:

1) to'rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“issiqlik o'tkazuvchi quvurlarning issiqlik izolyatsiyalarini but holatda saqlashi (ko'p kvartirali uylarning yerto'la qismidan tranzit tarzda o'tadigan magistral issiqlik tarmoqlari bundan mustasno)”;

2) quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Ko'p kvartirali uylarning yerto'la qismidan tranzit sifatida o'tadigan magistral issiqlik tarmoqlarida nosozliklar aniqlangan taqdirda, boshqarish organi bu haqda issiqlik ta'minoti tashkilotini xabardor qiladi va ularga xizmat ko'rsatish uchun kirish imkoniyatini ta'minlaydi.”.

7. 85-band quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Sovutish va isitish qurilmalarining jihozlarini (split) kirish yo‘laklariga o‘rnatishga yo‘l qo‘yilmaydi.”.

8. Quyidagi mazmundagi 97¹-97³-bandlar bilan to‘ldirilsin:

97¹. Boshqarish organi liftlarning butun foydalanish muddati davomida avariyasiz va xavfsiz ishlashini ta‘minlashi lozim (liftlarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun to‘xtatib qo‘yilgan muddat bundan mustasno).

97². Boshqarish organi liftlar faoliyati ustidan dispetcherlik nazoratini o‘rnatishi hamda quyidagilarni ta‘minlashi lozim:

liftdagi avariya-qutqaruv qurilmasi, kuzatuv kamerasi, aloqani kuchaytirish qurilmasi, avariya holatlari to‘g‘risida xabar berish vositalarini soz holatda saqlashi;

lift kabinalaridan va mashina xonasidan operatorni ikki tomonlama so‘zlashuv aloqasiga chaqiruvchi chiroqli va tovushli signalizatsiya o‘rnatilishi va soz holatda saqlashi;

dispetcherlik punkti, lift kabinasi va mashina xonasida aloqa vositalari o‘rnatilishi va soz holatda saqlashi;

shaxta, mashina yoki blok xonalarining eshiklari ochilganligi va yopilganligi haqidagi chiroqli signalizatsiya o‘rnatilishi va soz holatda saqlashi;

liftning butun foydalanish muddati davomida lift jurnalini saqlashi;

liftga har oy texnik xizmat ko‘rsatilishini va yillik davriy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishini ta‘minlashi;

xavfli holatlar (avariya, nosozliklar va boshqa) to‘g‘risida darhol liftlarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotga xabar berishi;

shaxta, mashina yoki blok xonalarining eshiklari ochilganligi va yopilganligi haqidagi chiroqli signalizatsiya o‘rnatilishi;

nogironligi bo‘lgan shaxslar tomonidan liftlardan xavfsiz foydalanilishini ta‘minlashi;

liftga taqiqlangan yuklarni tashishga yo‘l qo‘ymasligi.

97³. Lift kabinasida liftdan foydalanish qoidalari hamda quyidagilar ko‘rsatilgan lavha osilishi kerak:

liftning nomi (maqsadi bo‘yicha);

yuk ko‘tarish qobiliyati (ruxsat etilgan yo‘lovchilar soni bilan);

“Xavfsiz lift” elektron platformasidagi qayd raqami va davriy texnik ko‘rikdan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

liftlarga texnik xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot yoki avariya xizmati bilan aloqa qilish uchun telefon raqami.

Lift shaxtasi, mashina xonasi va unga kirish joyi bo‘sh va yorug‘ bo‘lishi lozim.”.